



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

**ONA VA BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI
(Jizzax viloyati misolida)**

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna
Qarshi davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada ona va bolalar salomatligini saqlash masalasi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Huquqiy-nazariy asoslari keltirilgan. Ular negizida Jizzax viloyatida olib borilgan dasturlar, loyihalar ko'lam yillar kesimida misollar bilan tahlil etilgan. Ona salomatligining bola rivojlanishiga ta'siri, profilaktik tibbiy xizmatlarning ahamiyati hamda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning samaradorligi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari sog'lom avlodni shakllantirishda yanada profilaktika va sifatli tibbiy xizmatlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ona salomatligi, bolalar salomatligi, profilaktika, sog'liqni saqlash tizimi, sog'lom avlod, tibbiy xizmatlar, reproduktiv salomatlik, birinchi tibbiy xizmat.

**ПРАВОВЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
СИСТЕМЫ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ МАТЕРЕЙ И ДЕТЕЙ
(НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Бобобекова Наргиза Исматуллаевна
Каршинский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной научной статье проблема охраны здоровья матерей и детей проанализирована на основе комплексного подхода. Представлены её правовые и теоретические основы. На их базе с приведением конкретных примеров в динамике по годам рассмотрены масштабы реализованных в Джизакской области программ и проектов. Освещены влияние состояния здоровья матери на развитие ребёнка, значение профилактических медицинских услуг, а также эффективность реформ, осуществляемых в системе здравоохранения, на основе научных источников. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости дальнейшего развития профилактики и качественных медицинских услуг для формирования здорового поколения.

Ключевые слова: здоровье матери, здоровье детей, профилактика, система здравоохранения, здоровое поколение, медицинские услуги, репродуктивное здоровье, первичная медицинская помощь.

**LEGAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE
MATERNAL AND CHILD HEALTH PROTECTION SYSTEM
(CASE STUDY OF JIZZAKH REGION)**

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna
Karshi State University, Doctoral Student

Abstract

This scientific article analyzes the issue of maternal and child health protection

through a comprehensive approach. The legal and theoretical foundations of the topic are presented. Based on these foundations, the scope of programs and projects implemented in the Jizzakh region is examined with examples in a year-by-year perspective. The impact of maternal health on child development, the importance of preventive medical services, and the effectiveness of reforms carried out in the healthcare system are discussed on the basis of scientific sources. The research results demonstrate the necessity of further developing preventive measures and high-quality medical services to ensure the formation of a healthy generation.

Keywords: maternal health, child health, prevention, healthcare system, healthy generation, medical services, reproductive health, primary healthcare.

Hozirgi globallashuv hamda turli infeksiyon kasalliklarning rivojlanishi sharoitida, aholi salomatligini saqlash, ayniqsa ona va bolalar salomatligini muhofaza qilish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Nima sababdan? Javob oddiy, nafaqat bugungi kunda, balki butun bir insoniyat tarixi davomida demografik barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyatning intellektual salohiyati bevosita sog'lom avlod tarbiyasiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ona va bolalar salomatligi masalasi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridayoq sog'liqni saqlash tizimida ona va bolalar salomatligiga qaratilgan xizmatlar sifatini oshirish masalaga jiddiy e'tibor berilib, davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. Xususan, 2000-yil Sog'lom avlod yili, 2001-yil Ona va bola yili, 2005-yilda Sihat-salomatlik yili, 2010-yil Barkamol avlod yili, 2014-yil Sog'lom bola yili, 2016-yil Sog'lom ona va bola yili, 2023-yil Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yillari deb e'lon qilinishi va bu yillarda amaliyotga joriy qilingan farmon, qarorlar, dastur va loyihalar fikrimiz isbotidir. Natijada birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish, tibbiy moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi, zamonaviy diagnostika usullarini joriy etish hamda tibbiy kadrlar malakasini oshirish sohasidagi samaradorlikka erishildi, asosiysi eng muhim muammo bo'lgan ona va salomatligini ta'minlash borasida ko'plab ijobiy ishlar qilindi. Maqolada ko'tarilgan dolzarb masala ham shu.

Ma'lumki, 2000-yilda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi [1] e'lon qilingan edi. Diqqat qaratilgan masalalar sirasida sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy yetuk, intellektual rivojlangan, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish muammosi dozrablikni kasb etgan. Avvalo bu keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish asnosida sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirishga, davlat, jamiyat va oila tomonidan sog'lom farzand tug'ilishiga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirishga, bolalarning salomatligini mustahkamlash, ta'lim olishi va har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga e'tibor qaratildi.

2001-yilda tadbir etilgan "Ona va bola" Davlat dastiriga[2] ko'ra yurtimizda ona sog'lig'ini mustahkamlash va sog'lom bola tug'ilishi masalalariga e'tibor kuchaytirildi. Profilaktika tadbirlarini muntazam o'tkazish yordamida amalda zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar yordamida tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ona va bolani parvarish qilish tizimi ishlab chiqildi.

Bu dasturning uzviy davomi sifatida 2002-yil 5-iyulda "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ulishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalashlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-sonli qarori negizida ko'p yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Viloyatda ham dastur doirasida ko'plab amaliy ishlar qilindi (Quyida misollar asosida tahlil etamiz).

2005-yilda amalga oshirilgan "Sihat-salomatlik" Davlat dasturi[3] maqsadlarini

onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona va bola sog'lig'ini mustahkamlash, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, tibbiy madaniyatni oshirish va oilada turmush tarzini sog'lomlashtirish, jismonan baquvvat farzandlar tug'ilishini va ularni barkamol qilib tarbiyalashni ta'minlash kabi loyihalar va tadbirlar qamrab olgan. Misol uchun, Jizzax viloyat hokimining 2007-yil 11-iyundagi "Jizzax shahar akusherlik kompleksini tashkil etish to'g'risida"gi 126-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko'ra, Viloyat akusherlik kompleksi faoliyati tugatilib, uning negizida mavjud shtatlar birliklari saqlab qolinganda 90 o'rinli Jizzax shahar akusherlik kompleksi tashkil etilgan [4.25-v]. Maqsad esa eng birinchi navbatda, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish, hamda shahar hududida istiqomat qilayotgan tug'ish yoshidagi ayollar orasida ekstrogenital kasalliklar ko'payishining oldini olish, homilador ayollarni sog'llomlashtirish ishlarini yanada kuchaytirish edi.

Shuningdek, viloyat aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, sog'lig'ini saqlash birlamchi bo'g'inining zamonaviy tashkiliy tuzilmasini yaratish maqsadida viloyat hokimining 2008 yil 14 iyundagi "Salomatlik-2" hamda "Ayollar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlash" loyihalarini amalga oshirish byurosini tashkil etilgan (Asos: viloyat hokimining 91-sonli qarori) [5.71-v]. Ushbu byuro nazoratida "Salomatlik-2" hamda "Ayollar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlash" loyihalarining viloyatda izchil, tizimli amalga oshirilishi ta'minlandi.

Albatta bu kabi katta loyihalarni hayotga tadbiq etish va amalga oshirish kiritilayotgan investitsiya hamda buyudjetdan ajratilgan mablag'lar holatiga bog'liqdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, viloyatda reproduktiv ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun kontraseptiv vositalarni xarid qilishga mablag' ajratish uchun viloyat hokimining 2008-yil 13 sentabrdagi 82-sonli farmoyishi imzolaniib, unga ko'ra 8 million so'm mablag' ajratilgan [6.14-v]. 2009-2013-yillarda aholining peproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga etkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish maqsadida Baxmal tumanidagi "Baxmal" qishloq vrachlik punkti hamda ushbu qishloq vrachlik punkti binosida joylashgan tuman tibbiyot birlashmasining 25 o'rinli bo'limini ta'mirlash uchun 100 million so'm mablag' ajratilgan [7.63-v].

Yuqorida keltirib o'tganimiz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 242-sonli "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'lig'ini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ulishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan Davlat dasturining ijrosi yuzasidan viloyatda 2008-yil 7 oy davomida ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan.

2008-yilda viloyatda 272732 nafar tug'ish yoshidagi ayol bo'lib, 265602 nafari (97,3%) tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan, ularning 166427 nafarida (62,6%) har xil kasalliklar aniqlangan. Kasalliklari aniqlangan ayollarning 111829 nafarida (67,2%) sog'lomlashtirish ishlari olib borilgan. Shuningdek, 15960 nafar tug'ish qayd etilgan bo'lib, 2007- yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga ko'paygan. Tug'ishning qayd etilishi Respublikada +3,4% ga oshgan. O'tkazilgan statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda tug'ish yoshidagi ayollar soni 2006-yilga nisbatan 156667 nafarga, birlamchi homiladorlar salmog'i 38,5% dan 46,1% ga, birinchi tug'ruqlar salmog'i 36,0%dan 42,1 %ga oshganligi tufayli tug'ish dinamikasida o'sishni ko'rishimiz mumkin. Dastur asosida aholi o'rtasida olib borilayotgan keng qamrovli tushuntirish-targ'ibot ishlari tufayli ko'p tug'uvchi ayollar (5 va undan yuqori tug'ishlar) salmog'i 1,3% ga kamaygan. (2006-yil -2,1%). Viloyatda onalar o'limi ko'rsatgichi har 100000 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqlarga nisbatan) 12,5 ni (Respublika ko'rsatgichi -22,8) tashkil

etadi (ma'lumat viloyat hokimligining 7 oylik hisobot asosida keltirilgan [8.16-v]).

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008-yil 18 iyundagi "Bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-892-sonli qarori imzolangan. Qaror ijrosini ta'minlash asosida, viloyat hokimining viloyatda "Ona va bola skrining hududiy Markazi"ni tashkil etish to'g'risida"gi 2009-yil uyunda 11-sonli qarori imzolangan. Ko'zda tutulgan maqsad viloyat aholisini skrining tadqiqotlar bilan qamrab olinishini yaxshilash va markazni biometrial hamda reagentlar bilan ta'minlash, aholi orasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni olib borish edi.

2010-yidagi "Barkamol avlod" Davlat dasturida [9] ishlab chiqilgan izchil tizimga muvofiq sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, profilaktikaga asoslangan sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash borasida amaliy ishlar kuchaytirildi.

Sir emas, aholi salomatligini nazorat qilish va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda joylardagi tibbiyot muassasalari, jumladan, ko'p tarmoqli shifoxonalarning ahamiyati beqiyos. Shu sababdan ham viloyatda ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy tibbiy jihozlar (asbob-uskunalar, aniq ishlovchi diagnostik apparatlar va boshqa vositalar) bilan ta'minlanishi, kadrlar salohiyatini oshirish borasida tizimli ishlar qilindi. Misol uchun, Mirzacho'l tuman ko'p tarmoqli markaziy shifoxonasini olishimiz mumkin. Ushbu shifoxonada ham onalik va bolalikni muhofaza etish, sog'lom avlodni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

2012-yilda shifoxona 400 qatnovga mo'ljallangan bo'lib, unda bemorlarga 12 mutaxassislik bo'yicha malakali tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Shifoxonada, O'zbekiston Xususan, Mahmudxon Husanov, Muqaddas Bobonova, Amriddin Saidov singari shifokorlar, Umida Abdusamatova, Bibish Isayeva, Jamila Murodova, Nurasal Shilmatova kabi hamshiralarning aholi salomatligi yo'lida xizmatlari kattadir. Tumandagi shifoxona va QVPlarida O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 22 iyuldagi "Respublika qishloq tumanlarida onalar va bolalar reproduktiv salomatligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida olti yuzdan ziyod homilador ayollarga bepul polivitamin mineral majmualar tarqatilgan [10].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 22-iyuldagi "Respublikaning qishloq tumanlarida onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 156-sonli qarorining ijrosini ta'minlash hamda "Barkamol avlod yili" Davlat dasturini bajarish yuzasidan va profilaktik sog'liqni saqlashni yanada rivojlantirish, eng avvalo qishloq tumanlarida onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, "Sog'lom onalar va sog'lom bola" maqsadli vazifasini izchil amalga oshirish maqsadida viloyat hokimining 2010-yil 2-avgust sanasida 142-sonli qarori imzolangan. Unga ko'ra "Respublikaning qishloq tumanlarida yashaydigan homilador ayollar uchun xarid qilinadigan, tarkibida shu jumladan foli kislotasi mavjud bo'lgan umumiy quvvatlantiruvchi polivitaminlar maxsus komplekslarini xarid qilish, taqsimlash va ajratish tarkibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Nizom asosida, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi polivitaminlarning maxsus komplekslari viloyatning qishloq joylaridagi homilador ayollar soniga, pereparatlarning zarur tarzda transportda tashilishiga va saqlanishiga, ularning homilador ayollarga maqsadli ajratilishiga, shuningdek, polivitaminlar komplekslaridan foydalanishning zarur tarzda hisobga olinishi va hisobot berilishiga qarab tumanlar bo'yicha asosli taqsimlangan [11.4-v].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-iyuldagi "Germaniya

Federativ Respublikasi Hukumati bilan moliyaviy hamkorlikda “Sog‘liqni saqlash “Reproduktiv salomatlik/onalik va bolalikni muhofaza qilish” Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 219-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida viloyat hokimining 158-sonli qarori imzolangan edi. Dasturga doirasida 2012-yilda viloyat ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot Markazi 1137,98 ming evro qiymatidagi tibbiy va tashxis uskunalari bilan ta‘minlangan [12.110-v]. Ushbu tadbirlar amalga oshirilishi bilan bolalalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati yanada yaxshilanishiga erishilgan.

“Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg‘armasining 20 yilligiga bag‘ishlab “Sog‘lom avlod-millat kelajagi” mavzusida o‘tkazilgan viloyat konferensiyasida ko‘p yillar davomida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ayniqsa, bolalar va ayollarni, shuningdek, istedotli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, jumladan, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida madaniy-ma‘rifiy, sport, xayriya yo‘nalishlarida va “So‘g‘lom ona-sog‘lom bola” Davlat dasturining ijrosini ta‘minlash bo‘yicha aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, reproduktiv salomatlik, yoshlarni turli yot illatlar, jumladan, OITS va giyohvandlikning zararli oqibatlaridan ogoh etish yo‘nalishida “Sog‘lom avlod uchun” xayriya jamg‘armasi viloyat bo‘limi bilan hamkorlikda samarali mehnat qilib kelayotgan bir qator xalq ta‘limi, sog‘liqni saqlash, nodavlat va notijorat tashkilotlar xodimlari taqdirlangan. Xususan ular orasida o‘z mehnatlari bilan soha rivojiga samarali hissa qo‘shgan Viloyat endokrionologiya dispanseri shifokori Hamroqul Bobomurodov, Jizzax shahar tibbiyot birlashmasi akusher-ginekologi Xidorova Anora Xolmo‘minova, Mirzacho‘l tumani “Yangidala” QVP hamshirasi Isayeva Gulnora Mahamatovnalarni keltirish mumkin [13.42-v].

2012-yilda joriy etilgan “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi asosida yilning o‘tgan davrida hududimizdagi 1200 nafar tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, 532 nafar bir yoshgacha bo‘lgan bolalar to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshira borib, profilaktika ishlarini, mahallalar, maktab va kollejlarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishni yuqori saviyada olib borishga harakat qilmoqdamiz [14.12-b].

2013-yilda “Obod turmush yili” Davlat dasturi [15]ning uchinchi bo‘limida belgilangan aholi salomatligini muhofaza qilish tizimini yanada rivojlantirish, jumladan, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy tashxis qo‘yish va davolash uskunalari bilan jihozlash, kasalliklarning oldini olish, ilg‘or tibbiyot texnologiyalari hamda davolash usullarini tatbiq etishni kengaytirish, tibbiyot xodimlari mehnatini moddiy-ma‘naviy rag‘batlantirish, eng muhimi onalar va bolalar salomatligini muhofoza qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar hayotga tadbiq etilgan.

Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasi va viloyatlardagi ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarini rekonstruksiya qililini, ushbu muassasalarda o‘rnatilgan yangi asbob-uskunalar negizida ilg‘or tashxis qo‘yish va davolash texnologiyalari joriy etiladi. Bu esa bolalarga jahon standartlariga mos yuqori texnologik va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish imkonini berdi.

Ma‘lumki, sog‘lom bola tug‘ilishi va uni normal rivojlanishida onalar va bolalarning to‘g‘ri ovqatlanishi g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda mikronutrient tanqisligining oldini olish va bartaraf etish, ya‘ni iste‘mol tuzini yodlash, uni to‘yintirish, temir, foliy kislotasi va A vitaminini siplementatsiya qilish bo‘yicha dasturlar amalga oshirilgan bo‘lib, har yili polivitamin komplekslarini xarid qilish uchun budjet mablag‘lar ajratilgan. Bu dasturlar doirasida 2013-yilning o‘zida 400 ming nafardan ziyod homilador ayolning sog‘lig‘i mustahkamlanadi.

Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bolalar tug'ilishiga qaratilgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2013-yilda tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va o'smir qizlarni "Sog'lomlashtirish haftaliklari" o'tkazilib, bu tadbirlar hududlarni, ayniqsa, chekka va borish qiyin bo'lgan tumanlarda joylashgan qishloqlarni qamrab oldi. Natijada bu hududlarda istiqomat qilgan xotin-qizlar hamda bolalarni mamlakatimizdagi yetakchi ixtisoslashtirilgan markazlar, ilmiy-tekshirish institutlari hamda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining yuqori malakali mutaxassislari va professorlar maslahatlar berdilar, davoladilar.

2013-yilda amalga oshirilgan "Sog'lom ona sog'lom bola" va "Sog'lom yoshlar" loyihalari asosida o'smir qizlarga to'g'ri ovqatlanish, gigiyena va qamqonlikning oldini olish borasida tibbiy ma'lumotlar berish, shuningdek, homilador va tug'ish yoshidagi ayollarni reproduktiv salomatligini saqlash, tug'ruqqa tayyorlanish va bir yoshgacha bo'lgan bolani parvarishlash masalalari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi [16].

2014-yil "Sog'lom bola" davlat dasturiga ko'ra, sog'lom farzandlar tug'ilishi va ularning salomatligini mustahkamlash uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, yangi oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari, sanatoriya-kurort ob'ektlari barpo etish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ishlari olib borilgan. Misol uchun, MDH mamlakatlarida o'xshashi bo'lmagan zamonaviy ko'p tarmoqli bolalar markazi (IV darajali) barpo etilib, yuqori texnologik tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan. Respublika ixtisoslashgan pediatriya ilmiy-amaliy markazining qator bo'linmalari, ToshPTI klinikalari, 13 viloyat ko'p tarmoqli bolalar tibbiy markazlari, 62 tuman tibbiyot birlashmalari va boshqa tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar qurilib, ba'zilar qayta ta'mirlandi. Ularning barchasi zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlanib, bolalarga jahon standartlari darajasida ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish imkonini berdi.

Ma'lumki, aholining sanitariya-epidemiologik barqarorligini ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri yuqumli kasalliklar profilaktikasi. Shu maqsadda turli infeksiyalarga qarshi yangi vaktsinalar bosqichma-bosqich bolalarni emlash dasturi yo'lga qo'yildi. Milliy emlash taqvimini asosida kontingentning kamida 97 foizini qamrab olgan profilaktik vaktsinatsiya qilish joriy qilindi [17].

"Sog'lom bola yili" davlat dasturidan ko'zlangan eng asosiy maqsad ham aslida, birlamchi tibbiy sanitariya muassasalarida ayollar, bolalar va o'smirlar uchun tibbiy xizmat samaradorligi va sifatini yanada oshirish, homilador ayollar, go'daklar, bolalar va o'smirlarga perinatal va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yaxshilash, yuqumli kasalliklar profilaktikasi, aholi salomatligini yaxshilash edi. Ma'lum ma'noda kutulgan natijalarga erishildi ham. 2014-yilda investitsiya dasturi doirasida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalaari bilan jihozlash jarayonlari keng ko'lamda amalga oshirildi [18.2-b].

Bu borada Jizzax viloyatida ham qishloq vrachlik punktlari va boshqa shifoxonalar zamonaviy ta'mirlanib, ilm-fanning eng so'ngi yutuqlari asosidagi tibbiy apparatlar bilan ta'minlandi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida malaka oshirib kelayotgan shifokorlar soni tobora ko'payib borganligini statistika orqali bilishimiz mumkin [19].

2014-yil 11-dekabrda 187/35-sonli Viloyat hokimining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2133-sonli qarorining ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi qarorga muvofiq viloyat dasturi ishlab chiqilgandi. 2014-yilda mazkur dastur ijrosini ta'minlash uchun jami bo'lib 525,7 mlrd.so'm, shundan, 180,4 mlrd.so'mdan byudjet, 59,3 mlrd.so'm bajaruvchilar, 40,9 mlrd.so'm homiylar mablag'lari, 241,2 mlrd.so'm tijorat bank

kreditlari, 3,9 mlrd so‘m grant mablag‘lari yo‘naltirilgan. Sog‘lom turmush tarzi, ayniqsa, bolalar, o‘smirlar, tug‘ish yoshidagi ayollar va yosh ota-onalar o‘rtasida tibbiy madaniyatni targ‘ib qilish va “Sog‘lom ona-sog‘lom bola” dasturi asosida viloyat bo‘yicha 384 ta davra suhbat, 118 marotaba chiqishlar qilinib, shundan mahalliy gazetalar orqali 54 ta maqola chop etildi, televideniya 36 marotaba, radioda 28 marotaba yoritilgan. Maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbilanayotgan 25785 nafar bolalalar, umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining 195732 nafari chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. “Salomatlik-3” dasturi loyihasi asosida jami 7 ta, shundan, Zomin, Forish, Jizzax tumanlarida 2 tadan, Yangiobod tumanida 1 ta rentgen apparatlari keltirilgan [20.17-v].

Jarayon bu bilan to‘xtab qolmagan, viloyat ko‘p tarmoqli bolalar tibbiyot markaziga “Reproduktiv salomatlik ona va bolani davolashni takomillalashtirish” loyihasini amalga oshirish doirasida “Euro-Midland LLP” kompaniyasi tomonidan 26516, 7 evro miqdorida tibbiy apparatlar keltirilgan. G‘allaorol, Do‘stlik tuman tibbiyot birlashmalari, viloyat ruhiy kasalliklar dispanseri binolarida kapital rekonstruksiya ishlari bajarilgan. Arnasoy, Paxtakor tuman tibbiyot birlashmalari, Forish tuman markaziy shifoxonasi “Chaqir-Chuqur” va qarobdol filiallari, Zomin tuman silga qarshi kurash dispanseri, Zarbdor tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi hamda viloyat sil kasalliklar shifoxonasi to‘liq ta‘mirlangan. Viloyatda 24 ta qishloq vrachlik punktlarini “Namunali QVP” ga aylantirib, ularda qurulish-ta‘miralash ishlari bajarilgan. Shuningdek, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy Markazi Jizzax filiali bolalar reanimatsiyasi bo‘limida 100 foiz ta‘miralash ishlari bo‘lgan [21.18-v].

2016-yilda bu tadbirlarning uzviy davomi sifatida, “Sog‘lom ona va bola” davlat dasturi [22.] e‘lon qilinib, ustuvor vazifalari va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar amaliyotga joriy etildi. Xususan, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog‘lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur shart-sharoitlar yaratish, tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlarning moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot hamshiralarning sonini ko‘paytirishni ta‘minlash, akusher-ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish kabi masalarni keltirish mumkin.

Viloyatimizda shu yilning birinchi yarmida “Sog‘lom on va bola yili” davlat dasturi ijrosi doirasida 301,2 milliard so‘m mablag‘ sarflandi. Qishloq hududlarida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalari qurish, ta‘mirlash va ularni zamonaviy jihozlashga alohida e‘tibor qaratildi. Misol uchun, Zafarobod tuman tibbiyot birlashmasining bolalar bo‘limi va tug‘ruq majmuasi kapital rekonstruksiya qilinishi uchun 1 milliard 700 million so‘mlik mablag‘ ajratilgan. Qayta davolash, rekonstruksiya qilingan shifoxonada tashxis qo‘yish va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun barcha qulayliklar yaratilgan [23.2-b].

Dastur doirasidagi ishlar 2017-yilda ham davom ettirilib, o‘zining ijobiy natijalariga erishilgan. Xususan, Do‘stlik tuman tibbiyot birlashmasi tasarrifidagi 20 o‘ringa mo‘ljallangan bolalar bo‘limida onalar va bolalar, uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Malakali shifokorlardan akusher-ginekolog Dilafro‘z Rahmanova, Matluba Yalg‘ashevalar mehnatlari tahsinga sazovardir [24]. Shu bilan birga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatni oshirish va profilaktik ko‘riklarga jalb etish orqali ona va bolalar salomatligini saqlash, muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilib kelindi. Jumladan, 2017 — 2022-yillarda onalar o‘limi ko‘rsatkichi 1,5 baravarga, go‘daklar o‘limi esa 1,3 baravarga kamayishiga erishildi [25].

2023-yil qabul qilingan “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” davlat dasturida shu yilning o’zida Respublika miqyosida 30 ta oilaviy poliklinika, 110 ta oilaviy shifokor punkti va 520 tagacha ixcham mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etildi. 18-40 yoshli 12,6 mln nafar aholini profilaktik ko’rikdan o’tkazish, 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi bo’lmagan 6,3 mln nafar aholini yurak qon-tomir kasalliklari va qandli diabet, 3 mln nafar aholini onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo’yicha skrining tekshiruvlaridan o’tkazildi. Spinal mushak atrofiyasi bilan kasallangan 112 nafar bolani dori vositalari bilan ta’minlandi. 250 nafardan ortiq zaif eshituvchi bolada koxlear implantatsiya operatsiyalari o’tkazildi hamda bunday operatsiyalar o’tkazilgan 132 nafar bolada nutq protsessorlarini almashtirish choralari ko’rildi [26].

2023-yil 1-oktabrdan boshlab Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, 14 ta hududiy filiali ish boshlagan [27].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-296-sonli qaroriga asosan onalar salomatligini muhofaza qilishning takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj tizimi joriy qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Ona va bolalar salomatligini saqlash jamiyatning barqaror rivojlanishi va sog’lom avlodni tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tahlillar shuni ko’rsatadiki, profilaktikaga asoslangan yondashuv, sifatli tibbiy xizmatlar va davlat hamda jamiyatning o’zaro hamkorligi orqali mazkur sohada yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bu omil yurtimizda amalga oshirilgan sog’liqni saqlash tizimidagi islohatlar doirasidagi dastur va loyihalarni amaliyotga tadbiq etish jarayonida o’z isbotini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. “Sog’lom avlod” davlat dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 46-sonli qarori. 15.02.2000-yil. <https://lex.uz/docs/-261518>.
2. “Ona va bola” davlat dasturi to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 68-sonli qarori. 05.02.2001-yil. (hujjat 22.02.2021-yilda o’z kuchuni yo’qotgan). <https://lex.uz/uz/docs/388442?ONDATE=22.02.2021>.
3. “Sihat-salomatlik yili” davlat dasturi to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30-sonli qarori. 25.01.2005-yil. (hujjat 22.02.2021-yilda o’z kuchuni yo’qotgan). <https://lex.uz/docs/-436991?ONDATE=22.02.2021>.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro’yxat-30, yig’ma jild-68, 25-varaq
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, yig’ma jild-11, 71-varaq
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, yig’ma jild-25, 14-varaq
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro’yxat-24, yig’ma jild-21, 63-varaq
8. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, yig’ma jild-25, 16-varaq
9. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1271-sonli qarori. 27.01.2010-yil. (hujjat 28.09.2020-yilda o’z kuchuni yo’qotgan). <https://lex.uz/docs/-1586072?ONDATE=27.01.2010>.
10. Abduraimov Xolmo’min (Mirzacho’l tuman ko’p tarmoqli markaziy

tabobatxonasining mudiri). Xizmat sifatini yaxshilaymiz. //Jizzax haqiqati, 17.11.2012-yil, №03-son (5299)

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro‘yxat-24, yig‘ma jild-14, 4-varaq

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro‘yxat-24, yig‘ma jild-13, 110-varaq

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, yig‘ma jild-27, 42-varaq

14. Yunusova Sohiba (Mirzacho‘l tumanidagi “Ipak yo‘li” qishloq vrachlik punkti umumiy amaliyot vrachi, “Shuhrat”. El salomatligini ko‘zlab. //Jizzax haqiqati, 08.12.2012-yil, №99-100-son (5305-5306). 12-b

15. “Obod turmush yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1920-sonli qarori. 14.02.2013-yil. (hujjat 28.09.2020-yilda o‘z kuchuni yo‘qotgan). <https://lex.uz/docs/-2135768>.

16. Oza’. Tibbiy xizmat sifati oshib, aholi salomatligi yanada mustahkamlanmoqda. // Jizzax haqiqati, 13.03.2013-yil, № 23-son (5332)

17. “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi qabul qilindi. //Gazeta.uz.22.02.2014-yil. <https://www.gazeta.uz/uz/2014/02/22/dastur/>.

18. Qo‘shboyev Abdumo‘min. Tibbiyotimizdagi dolzarb masalalar muhokamasi. //Jizzax haqiqati, 14.06.2014-yil, №48-son (5461). 2-b

19. Zayniddinov Norbo‘ta (viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining bosh mutaxassisi). Faxr va mas‘uliyat. //Jizzax haqiqati, 10.00.2014-yil, №10-son (5453)

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro‘yxat-27, yig‘ma jild-7, 17-varaq

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro‘yxat-27, yig‘ma jild-7, 18-varaq

22. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2487-sonli qarori. 09.02.2016-yil. <https://lex.uz/ru/docs/-2903502?ONDATE=22.02.2016&action=compare>.

23. Umarov.O‘. Aholi salomatligi yo‘lida. //Jizzax haqiqati, 13.08.2016-yil, № 66-son (5690). 2-b

24. Yarabekov.J., Qudratov Botir. Sog‘lom avlod-sog‘lom kelajak. //Jizzax haqiqati, 09.11.2017-yil, № 94-son (5824)

25. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-296-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 08.09.2023-yil. <https://lex.uz/uz/docs/-6598641>.

26. “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da nimalar belgilangan. // Hujjat O‘zAda e’lon qilingan va 28.02.2023 yildan kuchga kirgan. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/insonga_etibor_va_sifatli_talim_yilida_nimalar_belgilangan.

27. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-296-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 08.09.2023-yil. <https://lex.uz/uz/docs/-6598641>